

TA'LIMDA OCHIQ DARS TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI "PRIZMA VA UNING SIRTI" MAVZUSI MISOLIDA

Norxudjayeva Sotqinoy

Farg'ona viloyati Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar boshqarmasi

Qo'shtepa tuman 1-son kasb-hunar maktabi matematika fani o'qituvchisi

Bugungi globallashtirilgan va telekommunikatsiyalar asrida o'quvchini dars mashg'ulotiga jalb etish, ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, aniq fanlar "otasi" bo'lgan matematikaga.

Buning uchun o'qituvchidan doimiy ravishda o'z ustida ishlash va tajriba almashish, xorijiy tajribalarni o'rganib borish va bular asosida doimiy ravishda dars mashg'ulotlariga yangiliklarni kiritish, o'quv materiallarini yangilab borish talab etiladi.

Ochiq darslar esa buning uchun eng yaxshi usul hisoblanadi. Sababi ochiq darsga o'qituvchi puxta va yuqoridagi talablar asosida mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'radi. Shuningdek, ochiq dars davomida boshqa o'qituvchilar va mutaxassislar fikrini o'rganadi, o'quvchilar bilan faolroq ishlaydi hamda ochiq darsdagi samarali yangiliklar tez ommalashadi.


Aytib o'tilganidek ochiq darsning o'z talab va tayyorgarlik ko'rish bosqichlari mavjud.

Ochiq darsni o'tkazish turli xil maqsadlarga ega: sertifikatlash, nazorat qilish, o'zini o'zi anglash, o'qitishning yangi metodikasini taqdim etish, master-klass.

Ochiq darslar turli darajada bo'lishi mumkin. Eng kichik formatdagisi Taqdimot darajasi bo'yicha - bu dars bo'lishi mumkin. Maktabdagi hamkasblar uchun (tajribani tarqatish, har qanday uzoq muddatli tadbir doirasidagi dars, masalan, mavzu haftaligi), - muassasa ma'muriyati uchun (nazorat qilish yoki umumlashtirish maqsadida, masalan, o'qituvchilarga sertifikatlash uchun topshirish), - tuman miqyosida (yangi o'qitish uslubi yoki o'qitish elementini taqdim etish, shuningdek tajribani tarqatish), - mintaqaviy va undan yuqori darajadagi ta'lim sohasidagi ba'zi musobaqalar elementar yoki asosiy tadbir sifatida ochiq darsni ham o'z ichiga oladi.

Biroq, ochiq darsning maqsadi qanday bo'lishidan qat'i nazar, uning ustida ishlash maqsadga erishishga yordam beradigan asosiy vazifalarni belgilashdan va shunga mos ravishda darsning batafsil rivojlanishidan boshlanadi.


Uskunalar xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda, na o'qituvchi, na talabalar uchun uni ishlatishda hech qanday aralashuv bo'lmaydigan tarzda o'rnatiladi.



Texnik tayyorgarlik vaqtida elektr ta'minoti kabilarni ham e'tiborga oling. Tayexnik vositalardagi nosozliklar yoki elektr energiyasidagi uzulish kabi favqulotdagi xolatlarni ham hisobga oling. Bunday sharoitga mos sizda 2-reaja tayyor bo'lsin.

Chunki tqdim etiladigan materiallar eng muhimi hisoblanib, uning sifatli taqdim etilishiga yuqoridagi omillar ham ta'sir etadi.

Quyida "Prizma va uning sirti" mavzusidagi ochiq darsga tayyorlangan materiallar asosidagi tayyorgarlikni ko'rib chiqilgan.



Taqdimot tayyorlashdan oldin ma'ruza matni tayyorlash zarur. Ma'ruza asosida taqdimotlar tayyorlanadi. Taqdimot rejasini ishlab chish xam muxum hisoblanadi.

Taqdimotga mavzuga mos "fon" yoki "shablon" tanlash taqdimot sifatini yanada oshiradi. Bunda estetik did bilan yondashiladi.



Dars davomida o'quvchilar bilimni baholash va ularni faollashtirish uchun turli topshiriqlar berib turish maqsadga muvofiq.(1-rasm)

1-masala: uchburchakli og'ma prizma yon qirralari orasidagi masofalar, mos ravishda, 7 sm, 15 sm va 20 sm. Prizmaning eng katta yuzli yon yog'idan uning qarshisidagi yon qirrasigacha bo'lgan masofani toping.

Yechish: $S_{ABC} = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$, $p = \frac{a+b+c}{2}$

$$p = \frac{7+15+20}{2} = 21,$$

$$S_{ABC} = \sqrt{21(21-7)(21-15)(21-20)} =$$


$$\sqrt{21 \cdot 14 \cdot 6 \cdot 1} = 42$$

$$S_{ABC} = \frac{AC \cdot BD}{2}, 42 = \frac{AC \cdot BD}{2} \quad BD = 4,2 \text{ sm}$$

1-rasm.

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar fikrini olish uchun "fidbek" ya'ni qayta aloqa o'rnatish tavsiya etiladi. Buni esa mavzuga mos ravshda o'tkazish

mantiqiy yakunga sabab bo'ladi. Masalan ishtirokchilardan mashg'ulot yakunida "Bo'lib o'tgan ochiq darsni Siz, quyidagilardan qaysi biriga qiyoslagan bo'lar edingiz?" degan savol bilan murojaat qilib ularning qiziqarli jayoblari va izoxlarini olish mumkin bo'ladi. (2-rasm)



2-rasm.

Olingan fikrlar asosida ishlanma va materiallaringizni takomillashtiring. Keyingi darslarda samarali qo'llashda foydalanish uchun. Shuningdek yakunda ochiq darsni hujjatlari rasmiylashtirilayotgandja ham bu xaqda ma'lumot kiritishingiz mumkin bo'ladi.

Ochiq darsni yana bir ahamiyati o'qituvchiga toifa berilishida va ustama bilan rag'batlantirilishida e'nobatga olinadi. Ochiq dars O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha yo'riqnomada ham Tashkiliy-uslubiy ishlar qatoriga kiritilgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 29 avgustda 1845-son bilan ro'yxatga olingan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha yo'riqnomasi.

2. Ro'zieva D. va boshqalar. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi, Met.qo'll. – T.: TDPU, 2013 y.

3. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

4. my.moqt.uz Professional ta'limni rivojlantirish instituti